

**MUALLIFLIK HUQUQIDA MUALLIFLIK HAQINING
SHARTNOMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR TAHLILI**

Avlaqulov Sobir Shodiqul o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, "Intellectual mulk va axborot texnologiyalari
huquqi" yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada mualliflik huquqi doirasidagi shartnomaviy-huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyati chuqur tahlil qilinadi. Jumladan, mualliflik haqi tushunchasi, uning huquqiy va iqtisodiy asoslari, to'lov shakllari (royalti, paushal to'lovlar, aralash tizimlar) hamda amaliyotda uchraydigan huquqiy muammolar atroflicha yoritiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari – jumladan Fuqarolik kodeksi va "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun – asosida mualliflik shartnomalarining shakli, mazmuni, tomonlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, mualliflik haqlarini belgilash usullari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: mualliflik huquqi, mualliflik haqi, shartnoma, litsenziya, royalti, paushal to'lov, tijoratlashtirish, intellektual mulk.

**АНАЛИЗ ДОГОВОРНО-ПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЙ
АВТОРСКИХ ПРАВ В АВТОРСКОМ ПРАВЕ**

Авлакулов Собир Шодикул угли

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета, по направлению «Право интеллектуальной собственности и информационных технологий»

Аннотация: в данной статье всесторонне анализируется сущность договорно-правовых отношений в рамках авторского права. В частности, рассматриваются понятие авторского вознаграждения, его правовые и экономические основы, формы выплат (роялти, паушальные платежи, смешанные системы), а также правовые проблемы, встречающиеся на практике. В статье изучаются формы, содержание, права и обязанности сторон авторских договоров, а также методы установления авторского
SJIF: 5.051

вознаграждения на основе действующих нормативно-правовых актов Республики Узбекистан – в частности, Гражданского кодекса и Закона «Об авторском праве и смежных правах».

Ключевые слова: авторское право, авторское вознаграждение, договор, лицензия, роялти, паушальный платёж, коммерциализация, интеллектуальная собственность.

ANALYSIS OF CONTRACTUAL-LEGAL RELATIONS OF COPYRIGHT IN COPYRIGHT LAW

Avlaqulov Sobir Shodiqul o'g'li

Master's student at Tashkent State University of Law, specializing in "Intellectual Property and Information Technology Law"

Abstract: *this article presents a thorough analysis of the nature and content of contractual and legal relations within the scope of copyright law. In particular, it examines the concept of author's remuneration, its legal and economic foundations, forms of payment (royalties, lump-sum payments, mixed systems), and the legal issues commonly encountered in practice. The study is based on the current normative legal documents of the Republic of Uzbekistan—specifically, the Civil Code and the Law "On Copyright and Related Rights." It explores the form and content of copyright agreements, the rights and obligations of the parties involved, and the methods for determining author's remuneration.*

Keywords: *copyright, author's remuneration, contract, license, royalty, lump-sum payment, commercialization, intellectual property.*

Kirish: Mualliflik huquqi zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiluvchi muhim huquqiy institutga aylanmoqda. Asarlarni adolatli asosda tijoratlashtirish, muallif huquqlarini shartnomaviy asosda tartibga solish hamda ularning himoyasini kuchaytirish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, internet va telekommunikatsiya vositalari

orqali asarlardan foydalanish kengaygan bugungi kunda, mualliflik haqini to'lash va shartnoma asosida tartibga solish zarurati kuchaymoqda.

Jumladan, mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlash bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari uchun dolzarb va yechimi kutayotgan muhim ahamiyatga ega masalalardan biridir. Ayniqsa, bu masala telekommunikasiya tarmoqlarining ijtimoiy hayotga keng kirib borishi va raqamli muhit sharoitida yanada o'z ahamiyati va dolzarbliligini oshirishi ayni haqiqatdir.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar va faoliyati mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlashga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy nohukumat tashkilotlar tomonidan mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlashning eng muhim huquqiy vositalaridan biri bu mualliflik shartnomasidir. Shunga ko'ra, mualliflik shartnomasi institutini huquqiy jihatdan tadqiq nafaqat nazariya uchun balki amaliyot uchun ham muhimdir. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko'ra ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi¹.

Mualliflik huquqi sohasidagi shartnomaviy-huquqiy munosabatlar - bu asardan yoki boshqa mualliflik huquqi obyektidan foydalanish munosabati bilan mualliflik huquqi egasi va boshqa shaxs o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar hisoblanadi. Bunday munosabatlar fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Mualliflik huquqidagi shartnomaviy-huquqiy munosabatlar mualliflik huquqini himoya qilishni ta'minlashning muhim usullaridan biridir. Ular mualliflik huquqi egasiga o'z huquqlarini boshqa shaxslarga o'tkazish yoki cheklash imkonini

¹ <https://lex.uz/docs/-111189#-155450>.

beradi, bu esa asarlar va mualliflik huquqining boshqa obyektlaridan yanada samarali foydalanishga yordam beradi. Shuning uchun ham mualliflik huquqidagi shartnoma-huquqiy munosabatlar murakkab va jadal rivojlanayotgan institut hisoblanadi.

Mualliflik huquqini shartnomaviy-huquqiy tartibga solish mualliflik huquqini himoya qilishning asosiy usullaridan biridir. Mualliflik huquqi shartnomalari - mualliflarga va boshqa huquq egalariga o'z asarlaridan foydalanganlik uchun adolatli tovon olish va asarlardan jamiyatda samarali foydalanishni ta'minlash imkonini beradi.

Mualliflik huquqida shartnomaviy-huquqiy munosabatlarning naqadar muhimligini quyidagi holatlardan bilishimiz mumkin:

Birinchidan, shartnomalar ijodkorlar va bozor o'rtasidagi ko'prik bo'lib, ularga o'z asarlarini ekspluatatsiya qilish va tarqatish uchun muayyan huquqlarni berishga imkon beradi. Strukturaviy kelishuvlar barcha ishtirokchilar uchun aniqlik va xavfsizlikni ta'minlaydi, mulkchilik, foydalanish cheklovlari va kompensatsiya bilan bog'liq xavf va nizolarni minimallashtiradi.

Ikkinchidan, shartnomalar - bu ijodkorlar o'z ishlaridan daromad oladigan vositalardir. Ular royalti stavkalarini, to'lov jadvallarini va foydani taqsimlash mexanizmlarini belgilaydi, bu ularning intellektual mulki uchun adolatli kompensatsiyani ta'minlaydi. Taraflar o'rtasidagi kelishuvlar samarali daromad manbalarini yaratish, kelajakdagi ijodiy ishlarga sarmoya kiritish va ijodkorlar uchun barqaror ekotizimni mustahkamlash imkonini beradi.

Uchinchidan, huquq va manfaatlarni himoya qilishda o'rini muhim hisoblanadi. Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun ijodiy ishlardan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish uchun asos yaratadi. Biroq, shartnomalar ruxsat

etilgan foydalanish, litsenziyalar muddati va huquqbuzarliklarni bartaraf etish usullarini ko'rsatish orqali ushbu huquqlarni yanada takomillashtiradi va mustahkamlaydi. Yaxshi ishlab chiqilgan shartnomalar mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarning yaxlitligi va qadr-qimmatini ta'minlab, noqonuniy o'zlashtirishning oldini olishi va to'g'ri berilganligini ta'minlashi mumkin.

To'rtinchidan, hamkorlikni rivojlantiradi. Shartnomalar ijodkorlar, noshirlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikning asosini tashkil qiladi. Aniq kelishuvlar mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarning tijoriy salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun resurslar va tajribalarni birlashtirish imkonini beruvchi samarali hamkorlik va risklarni taqsimlash imkonini beradi.

Mualliflik huquqini himoya qiluvchi eng keng tarqalgan shakl – bu shartnomalardir. Huquqshunos olim A.Yuldashov asarlar va turdosh huquq obyektlari mualliflari (huquq egalari) va foydalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar quyidagi turdagi shartnomalar bilan tartibga solinadi, degan ilmiy xulosaga kelgan: a) mutlaq mualliflik huquqlarini o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar; b) mualliflik buyurtmasi shartnomalari b) mualliflik huquqining mutlaq huquqlardan foydalanish huquqini berish to'g'risidagi shartnomalar (litsenziya shartnomalari)².

Intellektual mulkka bo'lgan huquqni uchinchi shaxsga to'liq o'tkazib berish mulkdorning intellektual mulkdan o'z biznesida foydalanishdan voz kechishini anglatadi. Ya'ni, intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni o'tkazib berishda huquqlarni oluvchi (assignee) o'tkazib beruvchi (assignor)ga tegishli bo'lgan intellektual mulk huquqlarini sotib oladi, bunda o'tkazib beruvchi huquqlarni sotib olgan shaxsdan litsenziyani qaytarib olishi ham mumkin

² Yakubova Iroda. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarishni takmillashtirish. Yuridik fan doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. 2023 y. 157-bet.

(intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni qisman o'tkazib berish bundan mustasno)³.

Mamlakatimiz huquqshunos olimlaridan biri O.Oqyulov ham bu borada o'z fikrini bildirib o'tgan: "Mulkiy huquq qisman o'tkazilganda, huquq egasi uning ma'lum qismini o'zida saqlab qolib, qolgan qismini o'tkazadi. Mulkiy huquqlar faqat shartnoma asosida o'tkaziladi. Shartnoma mulkiy huquq egasi va huquq to'liq yoki qisman o'tkazilayotgan shaxs o'rtasida tuziladi. Bunday shartnomalarga nisbatan qonunlarda boshqa shartnoma nazarda tutilmagan bo'lsa, FKning 26-bobi (Shartnoma tushunchasi va shartlari), 28-bobi (Shartnoma shartlarini o'zgartirish va shartnomaning bekor bo'lishi)da belgilangan qoidalar qo'llaniladi"⁴.

Fuqarolik kodeksining 1067-moddasiga ko'ra, mulkiy huquqlar faqat mualliflik shartnomasi orqali boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin. Mualliflik huquqi bo'yicha huquqshunos olim B.Toshev mualliflik shartnomasini mualliflik huquqining eng ko'p va eng keng tarqalgan himoya shakli sifatida baholagan⁵.

Mualliflik shartnomasini tuzish jarayonida quyidagilar shartnomada bevosita aks etishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

- asardan foydalanish usullari (mualliflik shartnomasi asosida o'tkaziladigan konkret huquqlar tasnifi);
- asardan foydalanishning har bir usuli uchun to'lanadigan haq miqdori va (yoki) to'lanadigan haq miqdorini belgilash tartibi, uni to'lash tartibi hamda muddatlari⁶.

³ Qobilov Po'lat. "Intellektual mulk huquqini himoya qilishni takomillashtirish masalalari" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – 104 b.

⁴ Omon Oqyulov. Intellektual mulk huquqi. I.M. Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. – Toshkent: 2005. – 26-b.

⁵ Toshev B.N. Mualliflik huquqi. Darslik. – T.: JIDU, 2011. – B.164

⁶ Milliy qonunchilik bazasi. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-yanvardagi “Adabiyot va san’at asarlaridan foydalanishning ayrim turlari uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to‘g‘risida”⁷gi 10-sonli qarori hamda qaror asosida uning uchta ilova hujjatlari⁸ ishlab chiqilgan. Mazkur hujjatlarda asarlardan foydalanishning minimal haq stavkalari belgilangan. Ushbu qarorlar foydalanuvchilarni tasniflash mezonlarini ishlab chiqishda hisobga olinadi.

Shuningdek, qarorda asarlardan barcha foydalanuvchilar muallif (mualliflar) yoxud mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan asarlardan foydalanish uchun litsenziya shartnomalari tuzishlari kerakligi ta’kidlanadi. Ushbu qarorning 3-bo‘limi 8-bandida to‘lovchining majburiyatlari belgilangan.

Shu o‘rinda mualliflik huquqida shartnomaviy-huquqiy munosabatlarda mualliflik haqining ahamiyati yuqori ekangligini takidlash o‘rinlidir. Buni nimada ko‘rishimiz mumkin? Buni biz muallif yoki huquq egasi o‘z ijod mahsulini tijoratlashtirish imkoniyati borligida ko‘ramiz.

Intellectual mulkni tijoratlashtirish deganda intellektual mulkdan foyda olish maqsadida undan amalda foydalanishni tashkil etishga qaratilgan strategik tadbirlar yig‘indisi tushuniladi. Tijoratlashtirish o‘zida intellektual mulk

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 19 yanvardagi 10-son “Adabiyot va san’at asarlaridan foydalanishning ayrim turlari uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi qarori.

⁸ Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-yanvardagi 10-sonli “Adabiyot va san’at asarlaridan foydalanganlikning ayrim turlari uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi qaroriga ilovalar, “Asarlar ommaviy ijro etilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi Nizom, “Asarlar fonogrammada takrorlanganligi, fonogrammalar va audiovizual asarlar nusxalari prokatga berilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi NIZOM, hamda “Tasviriy san’at asarlari takrorlanganligi va dekorativ-amaliy san’at asarlari nusxalari sanoatda ko‘paytirilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi Nizom.

obyektlaridan foydalanish, sotish yoki almashish orqali daromad olishga asoslangan mustaqil iqtisodiy munosabatlar doirasini ifoda etadi⁹.

Mualliflik huquqi obyektlarini tijoratlashtirishning asosiy afzalliklari:

Mualliflar va mualliflik huquqi egalari uchun daromad olish.

Mualliflik huquqi obyektlarini tijoratlashtirish mualliflar va huquq egalriga o'z asarlaridan foydalanishdan daromad olish imkonini beradi, bu ularning keyingi ijodiy faoliyati uchun muhim rag'batdir.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirish. Mualliflik huquqi obyektlarini tijoratlashtirish ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, chunki u mualliflar va mualliflik huquqi egalriga o'z asarlaridan foydalanishdan daromad olish imkoniyatini beradi.

Madaniyat va ta'lim darajasini oshirish. Mualliflik huquqi obyektlarini tijoratlashtirish madaniyat va ta'lim darajasini oshirishga yordam beradi, chunki bu san'at asarlarini odamlarning keng doirasi uchun ochiq qiladi.

Shundan kelib chiqib, mulkdor o'z intellektual mulkini tijoratlashtirishi uchun (o'z ehtiyojlari uchun ichki foydalanishdan tashqari) quyidagi ikki asosiy huquqiy vositadan foydalanadi:

1. Intellektual mulkka bo'lgan huquqni sotish yoki o'tkazib berish;
2. Intellektual mulk huquqini litsenziyalash¹⁰.

Mualliflik huquqida shartnomaviy-huquqiy munosabatlarda, jumladan, mualliflik shartnomasi yoki litsenziya shartnomasi bo'yicha intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquq egasi (litsenziar) boshqa shaxsga (litsenziatga) shartnomada kelishilgan to'lov – royalti yoki paushal (bir martalik) to'lov evaziga

⁹ Intellektual faoliyat natijalarini tijoratlashtirish va baholash: uslubiy qo'llanma/ B.Xodjaev va boshqalar. – T.: nashriyot nomi, 2021 y. – 21 bet

¹⁰ Intellectual Property Commercialization: Policy Options and Practical Instruments. United Nations, Geneva (Switzerland), 2011. <https://unece.org/fileadmin/DAM/ceci/publications/ip.pd>.

intellektual mulk obyektini ma'lum vaqtga yoki muayyan hajmda foydalanish uchun beradi.

Royalti. Ushbu atama ingliz tilidagi “royal” soʻzidan olingan boʻlib, “qirol”, “qirollik” degan maʼnolarni bildiradi. Uning kelib chiqishiga sabab, oʻrta asrlarda Angliyada qirol tomonidan oʻz qoʻl ostidagilarga taqdim etilgan yerlarga nisbatan olingan haq (toʻlov) tushunilgan. Bu atama keyinchalik vaqtinchalik yerdan foydalanganlik (ijara) uchun toʻlanadigan haq sifatida tushunilgan. XVI asrga kelib ushbu atama keng qoʻllanila boshlandi. Bunga sabab koʻmir qazib chiqaruvchilar yerdan foydalanganlik uchun har yili qirolga koʻrilgan foydadan maʼlum bir miqdorini berib kelishgan¹¹.

Amaliyotda intellektual mulkdan foydalanganlik boʻyicha royalti “R” stavka bilan yuritilib, litsenziatning undan foydalanish natijasidan kelib chiqib, quyidagilarga koʻra foydalaniladi:

yalpi daromad (sotish hajmi va umumiy summasi);

“toza” foyda;

qoʻshimcha daromad (intellektual mulk obyektini sotib olishi va foydalanishi natijasida olingan foyda);

mahsulot narxi;

mahsulot tannarxi;

ishlab chiqarish quvvati va hajmi;

qayta ishlangan mahsulotning narxi.

Shuni taʼkidlash kerakki, amaliyotda litsenzion shartnomalar asosida royalti toʻlab borilishida muammolar va nizoli holatlar kam uchraydi. Royalti

¹¹ Intellektual faoliyat natijalarini tijoratlashtirish va baholash: uslubiy qoʻllanma/ B.Xodjaev va boshqalar. – T.: nashriyot nomi, 2021 y. – 358 bet
SJIF: 5.051

olishning eng muhim sharti yaratilgan intellektual mulk obyektining huquqiy muhofazasining ta'minlanganligi hisoblanadi.

Royalti stavkasi. Litsenziyalash bitimlarida huquq egasi, odatda, litsenziyalangan mahsulot sotuvi hajmi (bir dona mahsulot uchun royalti) yoki sof savdo (sof savdoga asoslangan royalti)dan kelib chiqadigan bir martalik mukofot to'lovi yoki doimiy litsenziya to'lovlarini oladi.

Bir martalik yoki "paushal" to'lov. Paushal atamasi nemis tilidagi "pauschal" so'zidan olingan bo'lib, tarjimasi "ulgurji olmoq" degan ma'noni bildiradi. Paushal to'lovlar litsenziar uchun foydali hisoblanadi. Bu jihat litsenziat ustidan doimiy nazoratni olib borish zaruriyatini yo'qotishi hamda bir martalik katta miqdordagi pul summasini olishni anglatadi. Biroq bu to'lov shakli odatda litsenziar uchun doim ham foydali bo'lmazligi mumkin. Sababi bir qator holatlarda litsenziat tomonidan aynan ushbu mahsulotga nisbatan ishlab chiqarish hajmining kengayishi, litsenziar foyda olish imkoniyatlarini kamayishiga va u litsenziya to'lagan pulni qoplay olmasligi mumkin.

Shu bilan birga, hali foyda olmay turib hamda litsenziya olish bilan bog'liq yuqori risk sababli litsenziat doim ham litsenziya mukofotini paushal shaklida to'lanishiga rozilik bildirmasligi mumkin. Shuningdek, paushal to'lovning miqdorini belgilash, ya'ni litsenziya bitimining amal qilishi davrida hamda olingan intellektual mulk obyektining qiymati o'zgarishi (o'sish yoki pasayish) nuqta'i nazaridan kelib chiqib, paushal to'lovni oddiy matematik tarzda hisoblash imkoniyati mavjud emas.

Umumiy qoidaga ko'ra litsenziar paushal to'lov orqali katta miqdorda pul olishga harakat qiladi, bu esa unga royalti ko'rinishidagi litsenziya mukofoti pulini o'rnini (litsenziya shartnomasining vaqti nuqtai nazaridan) qoplashi lozim. O'z

navbatida, litsenziat ham paushal ko‘rinishida to‘lovlarni amalga oshirishda litsenziya narxini kamaytirishga harakat qiladi. Shuni aytish lozimki, tomonlar litsenziya narxini kelishishda xalqaro va milliy standartlar asosida hisoblash usullaridan kelib chiqib, amalga oshirishlari mumkin. Xususan, diskontlash usulidan foydalangan holda litsenziya to‘lovlarining amaldagi royalti shaklini paushal to‘lovga tenglashtirish mumkin. O‘z navbatida, paushal to‘lovlarni litsenziya bitimining amaldagi davriga nisbatan, rolyatining o‘rta darajasiga tenglashtirish mumkin.

Aralash to‘lovlar. Shuni ta’kidlash kerakki, bir qator holatlarda litsenziya shartnomasi to‘lovini paushal yoki royalti shaklida amalga oshirish tomonlardan (litsenziat yoki litsenziar uchun) biri yoxud har ikkisi uchun ham qulay bo‘lasligi mumkin. Bu holatda intellektual mulk obyekti egasi litsenziatdan dastlabki to‘lovni paushal shaklida keyingi to‘lovlarni esa royalti shaklida to‘lanishini talab qilishi mumkin.

Aynan shu kabi holatlarda litsenziya to‘lovlarini amalga oshirishning aralash shakllari qo‘llaniladi. Bunda litsenziya bitimining amal qilish davrining boshida, aniqrog‘i, litsenziya obyektidan tijoriy maqsadlarda foydalanishdan oldin paushal to‘lovlar amalga oshiriladi.

Litsenziya to‘lovining qolgan qismi esa royalti shaklida litsenziya bitimi obyektining tijoriy foydalanishi jarayonida har bir hisobot davrining tugashi bilan amalga oshirilib boriladi. Odatda, paushal shaklidagi dastlabki to‘lovlar avans deb qaraladi va litsenziatning kafolati sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Amaliyotda dastlabki to‘lovlarni litsenziya narxidan kelib chiqib, 25 % gacha miqdorda belgilash taklif etiladi. Litsenziya to‘lovlaridagi bog‘liqlikni ta’minlash maqsadida

dastlabki to'lovlar miqdorini oldindan kelishish va keyinchalik royalti stavkalarini kamaytirib borish taklif etiladi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida litsenziatning litsenziya bitimi predmetidan samarali foydalanishini rag'batlantirish maqsadidan kelib chiqib, ham paushal ham royalti shaklidagi to'lovlarni amalga oshirishda minimal miqdordagi kafolatlangan to'lovlarni to'lab borilishini yo'lga qo'yish tavsiya etilgan. Ushbu minimal to'lovlarni har bir hisobot davri oxirida to'lab borish tavsiya qilingan. Shundan kelib chiqib, litsenziya to'lovlarini litsenziya predmetidan foydalanish natijalari, ishlab chiqarish hajmi va litsenziya mahsulotini realizatsiya qilish natijalariga bog'lash maqsadga muvofiq emas.

Yuqorida ta'kidlanganidek, dastlabki va minimal kafolatlangan to'lovlarni amalga oshirishda 25 % dan oshmagan miqdordan oshirmaslik lozim. Litsenziya shartnomasining turlaridan kelib chiqib, ushbu miqdorni o'zgartirish mumkin, xususan, mutlaq litsenziyada 75 % gacha, nomutlaq litsenziyada esa 50 % gacha belgilash mumkin. Har yillik yoki kelishilgan muddatdagi qolgan to'lovlarni litsenziya bitimida tomonlar o'zaro kelishib olishlari mumkin.

Ushbu yo'nalishdagi ayrim olimlar tomonidan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarning xususiyatidan kelib chiqib, ulardan foydalanganlik uchun to'lovlarni amalga oshirishni quyidagi turlarga bo'lib amalga oshirilishini taklif etadi¹²:

1. Doimiy to'lovlar tizimi. Bunga ko'ra litsenziar (muallif) asarlardan tijoriy aylanmasidan qat'i nazar litsenziatdan bir xil belgilangan miqdordagi mukofot pulini olib turadi. Bu tizim juda oddiy va amaliyotda keng tarqalgan turlardan biri hisoblanadi;

¹² Хаметов Р. Интеллектуальная собственность, 1997, № 3-4.
SJIF: 5.051

2. Degressiv to'lovlar tizimi. Bunda muallif asarlarning sotilishi darajasidan kelib chiqib, pasayib boruvchi ma'lum bir miqdordagi mukofot to'lovini foizini olib turadi. Masalan, asar dastlabki sotuvda 100 ming nusxada sotilgan bo'lsa, 10 % mukofot, keyingi 100 ming sotuvdan esa 9 % va h.k. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tizim asosida hisob-kitoblardan ham litsenziar, ham litsenziat bir xilda manfaatdor hisoblanishadi. Ushbu tizim ko'proq Evropa mamlakatlari va AQShda qo'llaniladi;

3. Progressiv to'lovlar tizimi. Bunda asarning sotuvining oshib borishidan muallifga to'lanadigan mukofot puli ham oshib boradi. Bu tizim bir vaqtning o'zida ham muallif ham ikkinchi taraf, ya'ni litsenziat uchun foydali hisoblanadi;

4. Ko'rilgan foyda asosidagi to'lovlar tizimi. Ushbu tizimdagi muallifga to'lanadigan haq ko'rilgan umumiy daromadidan emas, balki asarlarning sotilishidan kelib chiqib hisoblanadi. Ushbu tizimdan ko'proq mualliflik shartnomalarida foydalaniladi;

5. Mukofot olish vaqtini minimallashtiradigan tizim. Ushbu tizim ko'pincha muallif (huquq egasi) asar nusxalarini majburan sotishni niyat qilgan bo'lsa, ishlatiladi. Bunda litsenziat muallifga ma'lum bir cheklangan muddat davomida to'lovlarning kam miqdorini taqdim etadi. Ushbu to'lov tizimining kamchiligi shundaki, litsenziatlar har qanday usulda chegirmalarning amal qilish muddatini uzaytirishga intilishadi;

6. Royaltining minimal miqdorini kafolatlash tizimi. So'nggi paytlarda mualliflik shartnomasida litsenziatning minimal miqdordagi royalti miqdorini kafolatlash majburiyatini ta'minlash amaliyoti keng tarqalmoqda, bu o'z navbatida, litsenziat tomonidan asarlarni sotishni yanada faollashtirishga turtki beradi;

7. Asar nusxalarini sotish narxini kafolatlash tizimi. Mazkur tizim yuqoridagi tizim kabi minimal sotish miqdorlarini belgilaydi. Bunda litsenziat asarning qonuniy nusxalarini litsenziatning filiallariga arzonlashtirilgan narxlarda sotishi mumkin. Bu esa muallifdan (huquqi egasi) sotishdan tushadigan katta miqdordagi daromadni yashirishga imkon beradi. Shu munosabat bilan mualliflik shartnomasiga royalti hisoblanadigan asar nusxalarining sotilish narxining hajmini belgilaydigan shartni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Hozirgi kunda internet hamda telekommunikatsiyaning rivojlanishi eng yuqori cho'qqiga chiqqanligi e'tiborga olsak, mualliflik huquqi obyektlarini internet va telekommunikatsiya tarmoqlarida muhofaza o'zining ahamiyatiga ko'ra juda ham dolzarb hisoblanadi. Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika hamda boshqa mintaqalarda yashovchi shaxslar mobil aparati orqali eshitmoqchi bo'lgan musiqasi yohud tomosha qilmoqchi bo'lgan kinofilmi uchun mualliflik haqini to'lagandan keyingina undan foydalanish huquqi bo'ladi. Bizning yurtimizda esa bu vaziyat mutlaqo o'zgacha, ya'ni, foydalanuvchi intellektual mulk obyekti (musiqa, she'r, audiovizual asar, fonogramma va shu kabilar)dan foydalanganlik uchun mualliflik haqini berishni o'rniga, muallif turli xil telekanallar yoki ijtimoiy tarmoqlar (YouTube, Facebook, Instagram, Tik Tok, Telegram)ga pul sarflab o'zining ijod mahsulini omma e'tiboriga namoyish etadi¹³.

Xulosa

Yuqoridagilarni umumlashtirib xulosa qiladigan bo'lsak, mualliflik huquqidagi shartnomaviy-huquqiy munosabatlar, ayniqsa mualliflik haqi mexanizmi (royalti va paushal to'lovlar) ijodkorlar uchun adolatli daromad manbai

¹³ Ruziyev Boburmirzo. O'zbekistonda mualliflik huquqlarini muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar: O'zbekiston Respublikasi Mualliflar va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati misolida. Intellektual mulk huquqini himoya qilishni takomillashtirish masalalari" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022.– 83 b.

bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Mualliflik shartnomalarining huquqiy asoslari kuchaytirilishi, foydalanuvchilar bilan muomala qilinadigan munosabatlar huquqiy jihatdan aniq belgilanib, raqamli muhitga mos shartnomaviy mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur. Shuningdek, mualliflik huquqini himoya qiluvchi institutlar faoliyatini kuchaytirish, litsenziyalash va to‘lov tizimlarini shaffoflashtirish ham dolzarb vazifadir.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi –T.: 1067-modda.
2. Yakubova Iroda. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarishni takmillashtirish. Yuridik fan doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. 2023 y. 157-bet.
3. Qobilov Po‘lat. “Intellektual mulk huquqini himoya qilishni takomillashtirish masalalari” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022.– 104 b.
4. Omon Oqyulov. Intellektual mulk huquqi. I.M. Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. – Toshkent: 2005. – 26-b.
5. Toshev B.N. Mualliflik huquqi. Darslik. – T.: JIDU, 2011. – B.164.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 19 yanvardagi 10-son “Adabiyot va san’at asarlaridan foydalanishning ayrim turlari uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi qarori.
7. Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-yanvardagi 10-sonli “Adabiyot va san’at asarlaridan foydalanganlikning ayrim turlari uchun mualliflik haqining eng

kam stavkalari to'g'risida"gi qaroriga ilovalar, "Asarlar ommaviy ijro etilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to'g'risida"gi Nizom, "Asarlar fonogrammada takrorlanganligi, fonogrammalar va audiovizual asarlar nusxalari prokatga berilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to'g'risida"gi NIZOM, hamda "Tasviriy san'at asarlari takrorlanganligi va dekorativ-amaliy san'at asarlari nusxalari sanoatda ko'paytirilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to'g'risida"gi Nizom.

8. Intellektual faoliyat natijalarini tijoratlashtirish va baholash: uslubiy qo'llanma/ B.Xodjaev va boshqalar. – T.: nashriyot nomi, 2021 y. – 21-bet.

9. Intellectual Property Commercialization: Policy Options and Practical Instruments. United Nations, Geneva (Switzerland), 2011.
<https://unece.org/fileadmin/DAM/ceci/publications/ip.pd>.

10. Хаметов Р. Интеллектуальная собственность, 1997, № 3-4.